

XOLID HUSAYNIYNING “THE KITE RUNNER” ASARIDA “UY” KONSEPTINING TAHLILI

Usmonova Zarina Habibovna

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Tohirova Zulxumor

*1-kurs magistratura bosqichi talabasi
Email: zulxumortohirova6184@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xolid Husayniyning “The Kite Runner” romanida “uy” (home) konseptining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda bu tushuncha nafaqat jismoniy makon, balki obrazlarning ruhiy dunyosi, xotiralari, yo‘qotishlari va tiklanish jarayonlari bilan bog‘liq markaziy ramz sifatida ko‘rsatadi. Qisqa qilib aytganda, tadqiqot uy konseptining asardagi psixologik hamda ijtimoiy qatlamlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, lingvistik tahlil, konsept, milliy identitet, semantik doira.

Abstract: This article analyzes the concept of “home” in Khaled Hosseini’s novel “The Kite Runner”. In the narrative, “home” is presented not merely as a physical location but as a complex symbolic space connected to memory, belonging, loss, and emotional recovery. Overall, the research deepens the understanding of the concept’s psychological and social dimensions in the work.

Key words: lingua-culturology, linguistic analysis, concept, national identity, semantic sphere.

Kirish. Lingvokulturologiya — bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya chegarasida joylashgan integrativ fan. U tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki milliy ong va madaniyatning saqlovchisi sifatida tahlil qiladi²². Konsept esa ushbu fan sohasining obyekti sifatida tadqiqot ishlari markazida turadi. Konsept- milliy identitet in’ikosi sifatida xalq tafakkurida shakllangan keng qamrovli tushuncha. Shunga ko‘ra tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Xolid Husayniyning “The Kite Runner” romanida “uy” konseptini ma’naviy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Afg‘on yozuvchisi Xolid Husayniy qalamiga mansub “The Kite Runner”- “Shamol ortidan yugurib” romani insoniylik, vijdon, sadoqat masalalari va Afg‘oniston tarixiga oid og‘riqli davrlarni, jamiyatning siyosiy, ma’naviy inqirozlarini ifoda etuvchi bebaho asardir. Asar nafaqat afg‘on xalqining, balki Sharq madaniyatiga xos ma’naviy qadriyatlarni ham yoritib beradi. Shu bois, asarning eng muhim madaniy va semantik

²² Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. — Москва: РУДН, 1997.

timsollaridan biri sifatida “uy” tushunchasi ushbu maqolaning asosiy konsepti sifatida ham pragmatik, ham lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Bu tushuncha asarda ramziy ma’noga ega bo‘lib, qahramonlar uchun yashash joyigina bo‘lib qolmay, ularning ruhiy holati, vatanga aloqadorlik hissi va o‘zligini anglash, madaniy ildizlarini eslatuvchi manba sifatida talqin etiladi. Amirning bolalikdagi Baba hovlisini haqiqiy uy sifatida qabul qilishi, Hasan uchun uy sadoqat va mansublik timsoliga aylanishi, qochqinlik davrida uy tushunchasining parchalanishi hamda Kabulga qaytish jarayonida bu tushuncha ruhiy poklanish vazifasini bajarishi asosiy tahlil nuqtalarini tashkil etadi.

Asarda “uy”ning semantik va madaniy doirasi. Ingliz tilida “house” va “home” so‘zlari orasidagi farq g‘oyat muhimdir. “House”- bu bino, inshoot, jismoniy makon. Ammo “home” so‘zi insonning ruhiy holatini, oilaviy muhabbat va xavfsizlikni anglatadi. Husayniy bu farqni badiiy mahorat bilan ko‘rsatadi. Amirning bolalik davridagi uyi, Vazir Akbar Xon mahallasidagi hovli, uning xotiralarida ideal, beg‘ubor “uy” timsoliga aylanadi:

“I remember the poplar trees lining the driveway of our house in Wazir Akbar Khan”.²³ Bu satrlar Afg‘on oilalariga xos tinchlik, sadoqat va oilaparvarlik muhitini aks ettiradi. Demak, “uy”- bu Amirning o‘tgan hayoti, o‘tmishdagi poklik, madaniy ildizlarining ramzi.

Afg‘on madaniyatida “uy”- bu oilaning, ota-onaning va naslning timsoli. O‘zbek va afg‘on xalq og‘zaki ijodida “uy” tushunchasi ko‘pincha “vatan”, “ona yurt”, “oilalar” so‘zlari bilan bir qatorda ishlatiladi²⁴. Demak, Husayniy “home” so‘zini inglizcha shaklda qo‘llasa-da, u Sharq madaniyatiga xos “uy” ma’nosini ifodalaydi.

Bundan tashqari “uy” – vatan va yo‘qotilganlik ramzi sifatida. Sovet istilosi va siyosiy notinchlik Amir va otasini Afg‘onistondan qochishga majbur qiladi. AQShga hijrat ularning hayotini saqlab qoladi, ammo madaniy va ruhiy “uy”dan uzadi. Amerika ularning tanasi uchun panoh, lekin ruhi uchun begona makondir: “For me, America was a place to bury my memories. For Baba, it was a place to mourn his”.²⁵ Bu iqtibos ikki avlodning uyga bo‘lgan qarashlarini ochib beradi: o‘g‘il uchun u eski xotiralardan qochish joyi, otasi uchun esa yo‘qotilgan vatanni sog‘inish joyidir.

Madaniy nuqtai nazardan bu holat diasporadagi insonning identitet inqirozini ifodalaydi. Stuart Hall ta’kidlaganidek, “madaniy identitet o‘tmish bilan hozirgi o‘rtasidagi uzluksiz muloqotdir”.²⁶ Demak, Amir va Babalar uchun uy- bu nafaqat joy, balki tarixiy xotira va madaniy o‘zlikni eslatib turuvchi ruhiy makondir.

“Uy”- ruhiy tozalanish va kechirim manbai. Asarning kulminatsion nuqtasida Amir Afg‘onistonga qaytadi. Bu safar nafaqat geografik, balki ma’naviy uyga qaytishdir. U o‘z vijdoni bilan yuzlashadi, bolalikdagi xiyonatini kechirish uchun Hasanning o‘g‘li

²³ Hosseini, K. The Kite Runner. New York: Riverhead Books, 2003. – P. 4.

²⁴ Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 45.

²⁵ Hosseini, K. The Kite Runner. New York: Riverhead Books, 2003. – P. 129.

²⁶ Hall, S. Cultural Identity and Diaspora. In: Identity: Community, Culture, Difference. London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 224.

Sohrabni qutqaradi: “There is a way to be good again”.²⁷ bu soʻzlar Amirning butun ruhiy sayohatini ifodalaydi. Demak, uy bu yerda kechirim va poklanishning manbai sifatida namoyon boʻladi.

Sharq madaniyatida “uy” tushunchasi koʻpincha axloqiy qadriyatlar bilan uygʻunlashgan: uyga qaytish - bu oʻzini, oʻz ildizini, ota-onasini anglashdir. Shu bois Husayniy uchun haqiqiy uy - bu vijdon va mehr-oqibat yashaydigan joydir.

Hasan obrazida uy konsepti. Hasan romandagi eng sadoqatli va pok qalbli qahramon sifatida “uy” konseptining axloqiy markazidir. U Amirning uyini himoya qiladi, hatto hayotini xavf ostiga qoʻyadi. Bu sadoqat Afgʻon xalqining vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini ifodalaydi: “For you, a thousand times over”.²⁸ Bu Hasan tilidan chiqqan soʻzlar nafaqat doʻstlik, balki “uy”ga, oilaga va vatan qadriyatlariga sadoqat ramzidir.

Shunday qilib, Hasan obrazida uy — bu sodiqlik, muhabbat, mehr va fidoyilik uygʻunlashgan axloqiy markazdir. Uning oʻlimi bilan “uy” vayron boʻladi, ammo Sohrab orqali u yana tiklanadi. Bu badiiy nuqtada muallif “uy”ni insoniylikning davomiy ramzi sifatida talqin qiladi.

Qisqa qilib aytganda, Xolid Husayniyning “The Kite Runner” asarida “uy” konsepti keng lingvomadaniy maʼnoga ega. U oʻz ichiga bolalik xotiralarini, vatan sevgisini, yoʻqotish va kechirish jarayonlarini oladi. Asarda “uy” — geografik joy emas, balki ruhiy, madaniy va axloqiy markaz sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha orqali yozuvchi Afgʻon xalqining boshdan kechirgan tarixiy ogʻriqlarini, sadoqat, afsus-nadomat va kechirim hislarini ingliz tili vositasida mohirona tasvirlab bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва: РУДН, 1997.
2. Hosseini, K. The Kite Runner. New York: Riverhead Books, 2003. – P. 4, 129, 192.
3. Hall, S. Cultural Identity and Diaspora. In: Identity: Community, Culture, Difference. London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.
4. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 45–47.
5. Said, E. Reflections on Exile and Other Essays. Harvard University Press, 2000. – P. 173–179.
6. Usmonova, Z. (2022). СТИВЕН КИНГНИНГ “ЎЛИК МИНТАҚА” (“DEAD ZONE”) АСАРИДА «THE LAUGHING TIGER» (“СМЕЮЩИЙСЯ ТИГР”) ОБРАЗ ТАЛҚИНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 12, 12.

²⁷ Hosseini, K. The Kite Runner. New York: Riverhead Books, 2003. – P. 192.

²⁸ Hosseini, K. The Kite Runner. New York: Riverhead Books, 2003. – P. 67.

7. Usmonova, Z. H. (2017). T influence on Uzbek scienc (1)), 170 nbuv/cgiirbis_64.exe. C21C E_DOWNLOAD= 1&Image, 3.
8. Habibovna, Usmonova Z. "Truth And Fairness In "The Dead Zone" By Steven King's." JournalNX, vol. 8, no. 1, 2022, pp. 77-80, doi:[10.17605/OSF.IO/ZH3MJ](https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ).
9. Usmonova, Z., & Quvvatova, D. (2021). The features of artistic functions in scientific fantasy (using the example of Ray Bradbury and Isaac Asimov's works). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.
10. Habibovna, U. Z. (2023). Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("The Martian Chronicles") Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar. Miasto Przyszłości, 32, 354–357.
11. Usmonova, Z., & Nurulloyevna, I. U. (2024). THE LIGUISTIC ANALYSIS OF TERMINOLOGY RELATED TO CRAFTS IN THE STORY OF "A ROSE FOR EMILY" BY WILLIAM FAULKNER. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(46), 99-102.